



BUXORO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

**2022- YIL
YANVAR-APREL**

2022- yilning yanvar-aprel oyida, Buxoro viloyatida jami **2 177,8** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2021- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan **105,2 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʼyicha shakllanadi.

Norasmiy sektor

18,8

20,9

60,3


Yirik korxona va
tashkilotlar

Kichik korxona
va mikrofirmalar

**2022- yil 1-may holatiga
ko‘ra qurilish ishlari
bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan
korxona va tashkilotlar, birlikda**



Yillar kesimida soni



1 749

Bino va inshootlar
qurish


334

Fuqarolik obyektlarini
qurish

831

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Hududlar kesimida



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o’sishiga o‘zining munosib hissasini qo’shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirganda o’sish sur’ati 102,5 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 60,0 foiz ulushi tashkil etib, o’sish sur’ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 101,6 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 11,5 foiz ulushi tashkil etib, o’sish sur’ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 136,3 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 28,5 foiz ulushni va 94,8 foiz o’sish sur’atini tashkil etdi.

	Holatiga :		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.05.2021- y.	01.05.2022- y.	
Buxoro viloyati	2 843	2 914	102,5
Buxoro shahri	937	940	100,3
Kogon shahri	122	126	103,3
<i>tumanlar:</i>			
Olot	76	78	102,6
Buxoro	233	231	99,1
Vobkent	120	123	102,5
G'ijduvon	195	201	103,1
Kogon	138	142	102,9
Qorako'l	112	105	93,8
Qorovulbozor	51	55	107,8
Peshko'	155	176	113,5
Romitan	230	255	110,9
Jondor	234	242	103,4
Shofirkon	240	240	100,0



**2022- yil 1- may holatiga ko‘ra
Buxoro viloyatida
faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish
korxonalarini ulushi, % da**




Buxoro sh. (32,3)



Romitan t. (8,8)



Jondor t. (8,3)



Qurilish ishlari 2022- yil yanvar-aprel uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	2 177,8	409,0	1 313,4	455,4
Buxoro sh.	484,3	35,3	334,3	114,7
Kogon sh.	130,2	95,1	22,0	13,1
tumanlar:				
Olot	146,8	45,7	75,6	25,6
Buxoro	160,5	6,2	111,6	42,6
Vobkent	66,4	-	47,5	19
G'ijduvon	158,6	0,1	115,1	43,4
Kogon	166,9	44,0	92,6	30,3
Qorako'l	108,7	0,5	84,7	23,6
Qorovulbozor	126,5	97,0	25,8	3,7
Peshku	143,8	-	104,3	39,5
Romitan	204,4	73,4	82,6	48,3
Jondor	141,1	-	114,8	26,3
Shofirkon	139,6	11,7	102,5	25,4




2022- yilning yanvar-aprel oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 409,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning mos davriga nisbatan 101,4 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yildagi ko'rsatkich darajasidan 0,4 punktg'a kamayib, 18,8 % ni tashkil etdi.


Qurilish ishlari

2022- yil yanvar-aprel uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 76,7 % i yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 80,9%), Kogon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 76,7% i yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 3,0 m.) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-aprel oyida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 60,3% i to'g'ri kelib, 2021- yil yanvar-aprel ko'rsatkichiga nisbatan 0,8 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,2% ni tashkil etgan holda 1 313,4 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da



60,3

2022- yil
yanvar-aprel

61,1


2021- yil
yanvar-aprel



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Jondor tumanida (114,8 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 81,3%), Qorako'l tumanida (84,7 mlrd. so'm yoki 77,8 %) va G'tijduvon tumanida (115,1 mlrd. so'm yoki 72,6 %)ga to'g'ri keldi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 20,9 % ni tashkil etdi yoki 455,4 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2021- yilning mos davriga nisbatan 117,9 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **95,5** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **2 082,4** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,4 %** va **95,6 %** ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2022-yil yanvar-aprel oyida**



Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning **43,1 %** i yoki **323,8** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

17,5 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **194,9** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **17,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **512,2** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **45,8 %** ni tashkil etdi.

45,8 %

36,7 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **409,2** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **36,7 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-aprel oyida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan foizda
Buxoro viloyati	2 177,8	105,2	100,0
<i>shahar:</i>			
Buxoro sh.	484,3	102,5	22,2
Kogon sh.	130,2	2,1 m.	6,0
<i>tuman:</i>			
Olot	146,8	105,6	6,8
Buxoro	160,5	111,5	7,4
Vobkent	66,4	100,7	3,1
G'ijduvon	158,6	102,7	7,3
Kogon	166,9	124,9	7,7
Qorako'l	108,7	100,4	5,0
Qorovulbozor	126,5	87,2	5,8
Peshko'	143,8	109,4	6,6
Romitan	204,4	83,6	9,4
Jondor	141,1	102,4	6,5
Shofirkon	139,6	105,4	6,2



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi



ulushi % da

1,9

2021- yil
yanvar-aprel

7,3

66,9

31,2

61,0

31,7

2022- yil
yanvar-aprel



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxona
va mikrofirmalar



Norasmiy
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 7,3 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-apreldagi ko'rsatkichga nisbatan 5,4 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,9 % punktga kamayib, 61,0 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,5 % punktga ko'payib, 31,7 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 26,3 % ni tashkil etdi va 2021- yil yanvar-aprelga nisbatan 0,7 % punktga kamaydi.


Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 73,7 % (0,7 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari


2021- yil yanvar-aprel



Kichik korxona va mikrofirmalar

2022- yil yanvar-aprel

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning mos davriga nisbatan 2,9 % punktga kamaydi va 38,1 % ni tashkil etdi. Qolgan 61,9 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 2,9 % punktga ko'paydi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-aprel


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	2 177,8	1 437,0	408,8	332,0
<i>shahar:</i>				
Buxoro sh.	484,3	316,9	113,9	53,5
Kogon sh.	130,2	100,9	20,3	9,0
<i>tuman:</i>				
Olot	146,8	72,3	17,2	57,3
Buxoro	160,5	113,2	30,0	17,3
Vobkent	66,4	47,2	12,1	7,1
G'ijduvon	158,6	117,3	23,4	17,9
Kogon	166,9	108,7	37,4	20,8
Qorako'l	108,7	79,0	16,3	13,4
Qorovulbozor	126,5	21,7	31,8	73,0
Peshko'	143,8	103,3	24,3	16,2
Romitan	204,4	162,0	29,7	12,7
Jondor	141,1	99,0	24,3	17,8
Shofirkon	139,6	95,5	28,1	16,0



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-aprel



ulushi % da



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2022- yil yanvar-aprel uchun

	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming. so'm	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	1 099,9	103,5
<i>shahar:</i>		
Buxoro sh.	1 703,0	101,4
Kogon sh.	2 086,1	2,1 m.
<i>tuman:</i>		
Olot	1 446,7	104,2
Buxoro	930,2	109,4
Vobkent	461,9	99,0
G'ijduvon	507,8	101,1
Kogon	2 053,4	122,3
Qorako'l	648,8	99,0
Qorovulbozor	6 623,0	85,0
Peshko'	1 133,3	107,5
Romitan	1 394,2	82,1
Jondor	785,6	100,8
Shofirkon	766,7	103,7



Hududlar kesimida 2022- yil yanvar-aprel oyida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Qorovulbozor tumani — 6 623,0 ming so'm (yoki, 2021-yilning mos davriga nisbatan 85,0 %), undan keyin mos ravishda Kogon shahri — 2 086,1 ming so'm (yoki 2,1 m.) Kogon tumani – 2 053,4 ming so'm (yoki 122,3 %), Buxoro shahri – 1 703,0 ming so'm (yoki 101,4 %), Olot tumani – 1 446,7 ming so'm (yoki 104,2 %) tumanlari egalladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: **(65) 223-81-99**